

# SHARQ MUMTOZ ADABIYOTIDA “UNVONUL BAYON” ASARINING TUTGAN O'RNI

**Anvarov Elyorbek**

*Toshkent advlat sharqshunoslik universiteti magistranti*

Ma'lumki, adabiyot asrlar osha insonning ma'naviy qiyofasini yuksaltirishga, go'zal axloqlarni shakllantirishga, ularda kelajakka umid va ishonchni tarbiyalashga xizmat qilgan. Mustaqillik davridagina adabiyotga xolisona baho berila boshlandi. Mustaqilligimizning dastlabki unlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, beba ho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi. Shibroviyning asarini bizni ajdodlar ruhida yozilishi ham bu asarning bizga qay darajada muhim ekanligi ko'rsatadi.

“Unvonul bayon va bustanul azhan va majmu’ va nasoih fil hikam” kitobi xalq orasida “Unvonul bayon” nomi bilan mashhurdir. Bu she'riy devonda pand-nasihat, hikmatlar va zarbulmasallar to'plangan. Muallif kitobni yeti uslubda tartibga keltirib, har bir uslub so'ngidan bir zarbulmasal keltiradi. Birinchi bor hijriy 1275 – yil Misrda nashr qilingan bu asar muallifi Imom Shibroviy rahmatullohi alayhdır.

Abdulloh ibn Muhammad Shibroviy rahmatullohi alayh hadis, fiqh, usulul fiqh, aqoid, adabiyot, she'riyat va bshqa bir qancha ilmlarni egallagan zabardast olim, o'z vaqtida “Al-Azhar”ning shayhi bo'lgan. O'zining “Ajoibul asor fit tarojim val axbor” kitobida Imom Abdulloh Shibroviy haqida ko'plab ma'lumotlar bergan mashhur tarixchi olim Abdurrahmon Jabratiy uni o'z davrining yetuk olimlaridan bo'lganini ta'kidlaydi. U Shibroviyning mehribon, bag'rikeng, oliyanob va dono bo'lganini, olim va solih kishilarni yaxshi ko'rib, himoya qilganini ham zikr qiladi.

Imom Shibroviyning to'liq ismi Abdulloh ibn Muhammad ibn Sharafiddin Shibroviy Jamoliddin Abu Muhammad Misriy Azhariy Shofi'iydir. Imom Shibroviy milodiy 1681 – yil Misrda fatvo borasida shuhrat qozongan bo'lib, o'z davrining ko'plab yetuk ulamolari undan dars olishgan. Nabirasi Imom Abdulloh Shibroviy ham avval bobosidan, so'ngra “Al-Azhar”ning birinchi shayxi imom Muhammad Xarashiydan ta'llim oldi.

Imom Shibroviy rahmatullohi alayh “Unvonul bayon va bustanul azhan”, “Manoihil altoffi madoihil ashrof”, “Al manhalul mavrud fi sharhi qasidati Ahmad ibn Mas'ud”, “Sharhu risalatul azdiyya fil vaz” kabi tarix va adabiyotga oid bir qancha asarlar yozib qoldirdi.

Shayx Abdulloh Shibroviyning “Unvonul bayon va bo'stonul azhan” (Bayon manzili va zehnlar bo'stoni) kitobida muslim insonning komillik yo'lidagi manzillariga ta'rif berilgan. Bu manzillarni tanib, sahifadan sahifaga ichkariroq kirayotgan inson qachonlardir yo'qotgan narsasini topganday quvonchga to'ladi... oysiz, yulduzsiz zimiston tun bag'rida adashib charchagan yo'lchiga uzoqdan “yilt” etib bir nur ko'rinsa, bu nur uni umid chirog'i bo'lib o'ziga chorlamaydimi, bu umid unga tetiklik, kuch-quvvat bag'ishlamaydimi, bu ishonch, bu quvvat uni najotga eltmaydimi?! “Unvon...” kitobi bilan yaqindan tanishish asnosida ko'ngilda shunday taassurotlar kechdi. Bu bejiz emas. Kalomdag'i i'joz maqomi Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom so'zlariga ham ko'chganiga hadisi shariflar guvoh. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning hadislari Qur'oni karimda hikmat deya zikr etilgan. Hikmat

“javome’ul kalim” (qisqa lafzda ko‘p ma’nolarni jamlash) uslubi orqali namoyon bo‘lgan. Bu ne’mat Allohnning mahbub Payg‘ambari Muhammad alayhissalomga berilgan edi. Mazkur kitobda ayni uslubga muhabbat ta’sirlanish samarasini ta’minlaganiga shubha yo‘q. Negaki, kitob muallifi Abu Muhammad Jamoliddin Abdulloh ibn Muhammad ibn Omir ibn Sharafiddin Shiroviy kalom, hadis, fiqh, usuli fiqh ilmlarida etuk olim bo‘lishi bilan birga, o‘z zamonasining nazmiy devon tartib bergan mumtoz shoirlaridan, adab ilmi bo‘yicha risolalar bitgan, bayonda mazmun va shakl uyg‘unligini his qilish malakasiga ega insonlardan edi. Bu imtiyoz “javome’ul kalim” uslubini o‘zlashtirishga imkon bergan. Muallif mo‘jaz jumlada insonning o‘zi bilan o‘zi va atrofdagilar bilan munosabatidagi nozik nuqtalarni bo‘rttirib, zarrabin ostida ko‘rsatar ekan, bu sirli joziba o‘quvchini o‘ziga tortadi, qo‘yib yubormaydi, mutoaladan uzilolmaysiz...

Ma’lumki, Islomning bosh manbai muqaddas Qur’oni karim arab tilida nozil bo‘lgan. Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom ham arab tilida gapirganlar. Arab tili mukammallikda tengsiz ekaniga shak yo‘q. Bu til asrlar davomida shu darajada takomillashgan asosga ega bo‘ldiki, ilohiy hikmat natijasi o‘laroq, lisoniy tizimdagi eng kichik o‘zgarishgacha har bir holat uchun muayyan qonuniyat, aniq qoida ishlab chiqildi. Arab tilida qoidaga bo‘yinsunmaydigan holat yo‘q. Har bir o‘zgarishning asosi, tegishli izohi bor. Aslida, arab tilini o‘rganishning qiyinligi, balki osonligi ham shunda.

Musannif asarni shunday boshlaydi:

*Hikmat - mo‘minning yo‘qotgan narsasidir. Uni qayerda topsa, bas u unikidir.*

1 Aql-zakovat, do-nolik va uning ifodasi bo‘lgan, uni aks ettiruvchi narsa gap-so‘z, fikr va sh.k.; donolik belgisi. ◆ Oz yemok – tani sog‘liq, Oz demak – hikmatga bog‘liq. Magol. Nodon-ning kulfati kup, Dononing – ◆ hikmati. Ma-qol. m ◆ Bobolarning hikmati Hayotga yorug‘ yo‘ldir: Otang bolasi bo‘lma, Odam bolasi bo‘l, der. E. Vohidov. ◆ Podshoh bilan sherga yaqin bo‘lmoq hikmatdan emasdir. Ertaklar. “Ku-rashmoq – o‘rnak bo‘lib yashamoq demakdir!” – degan edi mualliming, faylasuflarning hik-matini bayon qilib. I. Rahim, Chin muhabbat. Harakatda barakat – ◆ ko‘p qadim hikmat.. M. Shayxzoda.

2 Tagini anglash qiyin bo‘lgan, yashi-rin bir ma’no, yashirin bir sabab; sir. ◆ Bu oynada qanday hikmatni ko‘rding? Jonim bolam, sening holing na bo‘ldi? Bahrom va Gulandom. ◆ Oldingga kelgan yigit ketol-maydi, cu3jiapda biror hikmat bor ekan-da. Oq olma, «qizil olma». ◆ Bektemir general-larni urushning butun hikmatini biladi-gan bag‘oyat hurmatli aziz odamlar deb tu-shunardi. Oybek, «Quyosh qoraymas». ◆ Bulbul sayraydi, xo‘roz qichqiradi, eshak hangraydi, ot kishnaydi. Bularning tirikchiligi shu-da. Bunda nima hikmat bor deysiz? P. Tursun, «O‘qituvchi».

3 kam go‘ll. Foydali tomon; naf, foyda (ish, harakat haqida). ◆ Rahmat Otabekka kulumsirab qaradi-da, tog‘asiga javob berdi. -Xotin ko‘paytirib, ular orasida azob-lanishning nima hikmati bo‘lsin? A. Qodi-riy, «O‘tgan kunlar». To‘g‘ri, sholikorlikda hik-mat ko‘p bo‘ladi. Sh. G‘ulomov, Tashabbus.

4 Hikmati bor narsa, hikmat bildi-ruvchi fikr, ran. ◆ Qurib ketmang! Qo‘chqor yog‘i yeb, endi bir hikmat ko‘rsatmoqchimidshsh! M. Boboyev, «Go‘zallik istab». ◆ Qori, xuddi fav-qulodda bir hikmat eshitganday, og‘zini va ko‘zlarini katta ochib, To‘panisoga qaradi. A.

Qahhor, «*Qo'shchinor chirokdari*». ◆ Yosh xotin qari erkakni yashartiradi, degan gaplar bor; qariganda uylanadigan erkaklar ana shu hikmatga amal qilar emish.. Cho'Ipon, «*Kecha va kunduz*».

5 esk. ayn. fizika. ◆ -Ha, hikmat kesakdan alanga chiqargandek, siz ham kitobdan olgan bilimlaringizni turmush maktabida sinov-dan o'tkazing, – dedi qiz. Sh. G'ulomov, Yor-qin ufqlar.

Ilmi hikmat Fizika. ◆ Madrasa – diniy maktab. Lekin riyoziyot, ilmi hikmat, han-dasa, kimyo degan darslar ham o'tiladi. M. Ismoiliv, «*Farg'ona t*» . o.

6 Hikmat (erkaklar va xotin-qizlar ismi).

“Unvonul bayon va bustanul azhan va majmu’ va nasoih fil hikam”kitobi quyidagi so’zlar bilan boshlanadi:

“Olimu alloma imom, fahmi o’tkir, ilmi dengiz Shayx Abdulloh Shibraviy ash-Shofi’yni Alloh o’zining rahmati va roziligi bilan o’rab, firdavs jannatlarining yuqorisidan joy bersin (omiyn)”

Shu yerdan boshlab muallif yozayotgan kitobi to’g’risida quyidagi ma'lumotlarni beradi: “U zot dedi: O’zining sirlarga to’la xazinalarni namoyon qilgan va san’atining eng noziklarini o’z ichiga olgan ishoralarni xalqi ichidan saralab tanlagani (Payg’ambarimiz sollallohu alayhivasallam)ga ko’rsatib qo’yan Allohga hamdlar bo’lsin.

Balog’at ko’ylagi va fasohat yopinchig’i bo’lgan, javome’ul kalim-qisqa lafzda ko’p ma’nolarni jamlash ne’mati ato qilingan, bayon ilmi maydonida peshqadamlikni qo’lga kiritgan eng sara Adnoniy-sof qonli arablarning tanlangani Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga, u zotning xonadoni ahliga, odob-u hikmat yuklarini ko’targan, azmu- himmat egalari bo’lmish sahabalariga Allohning rahmati va salomi bo’lsin.